



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(2)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	



OILAVIY TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: TAJRIBA- SINOV NATIJALARI ASOSIDA

Ibragimova Aziza Toshniyazovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

70110102 – Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi,
 Samarqand, O'zbekiston

ORCID: 0009-0004-6538-1999

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik-psixologik yondashuvlarning amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi 5-, 12- va 24-sonli umumta'lim maktablarining 5–7-sinf o'quvchilari hamda ularning ota-onalari ishtirokida olib borilgan tajriba-sinov ishlari asosida yoritilgan. Tadqiqotda ota-onalar bilan treninglar, individual maslahatlar, keys-tahlil, vaziyatli muhokamalar, kommunikativ yondashuv va raqamli hamkorlik mexanizmlaridan foydalanishning tarbiyaviy samarasi ochib berilgan. Tajriba natijalari ota-onalarning pedagogik-psixologik tayyorgarligi, farzandlari bilan muloqot sifati, oiladagi psixologik muhit va maktab bilan hamkorlik darajasida ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatdi. Xususan, demokratik tarbiya uslubining kengayishi, avtoritar yondashuvlarning kamayishi hamda ota-onalarning farzandlarning yosh xususiyatlarini hisobga olishga bo'lgan e'tiborining kuchayishi oilaviy tarbiyada tizimli, maqsadli va innovatsion yondashuvlarning muhimligini tasdiqlaydi. Tadqiqotda oilaviy tarbiyani faqat nazorat yoki ogohlantirish bilan emas, balki muloqot, emotsional qo'llab-quvvatlash, kelishuv, rag'batlantirish va maktab bilan uzviy hamkorlik asosida tashkil etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy tarbiya, innovatsion yondashuv, ota-onalar pedagogik madaniyati, demokratik tarbiya, kommunikativ yondashuv, tajriba-sinov, oila-maktab hamkorligi, emotsional qo'llab-quvvatlash.

Abstract: The article examines the practical potential of innovative pedagogical and psychological approaches to improving the effectiveness of family education. The study is based on experimental research conducted among 5th–7th-grade students and their parents in Secondary Schools No. 5, 12, and 24 in the Kattakurgan District of the Samarkand Region. The article analyzes the educational impact of parent training programs, individual counseling, case analysis, situational discussions, communicative methods, and digital cooperation between families and schools. The results demonstrated positive changes in parents' pedagogical and psychological preparedness, the quality of parent-child communication, the psychological climate within the family, and the level of cooperation with schools. The increase in democratic parenting practices, the decline in authoritarian attitudes, and the growing attention to children's age-related characteristics confirm the importance of systematic and purposeful work with parents. The article argues that effective family education should not be limited to control and reprimands but should be based on dialogue, emotional support, mutual agreement, encouragement, and continuous cooperation between parents and teachers.

Key words: family education, innovative approach, parental pedagogical culture, democratic parenting, communicative approach, experimental research, family-school cooperation, emotional support.

Аннотация: В статье рассматриваются практические возможности инновационных педагогико-психологических подходов к повышению эффективности семейного воспитания. Исследование освещено на основе опытно-экспериментальной работы, проведённой с участием учащихся 5–7-х классов и их родителей в общеобразовательных школах № 5, 12 и 24 Каттакурганского района Самаркандской области. В работе раскрывается воспитательный потенциал родительских тренингов, индивидуального консультирования, анализа педагогических ситуаций, коммуникативных методов, ситуационных обсуждений и цифрового взаимодействия семьи и школы. Полученные результаты показали положительные изменения в педагогико-психологической подготовленности родителей, качестве общения с ребёнком, психологическом климате семьи и уровне сотрудничества со школой. Увеличение доли демократического стиля воспитания, снижение авторитарных подходов и усиление внимания родителей к возрастным особенностям детей подтверждают значимость системной и целенаправленной работы с семьёй. В статье обосновывается, что эффективность семейного воспитания зависит не только от контроля, но и от доверительного общения, эмоциональной поддержки, согласованных правил, поощрения и устойчивого взаимодействия родителей с педагогическим коллективом школы.

Ключевые слова: семейное воспитание, инновационный подход, педагогическая культура родителей, демократический стиль воспитания, коммуникативный подход, опытно-экспериментальная работа, сотрудничество семьи и школы, эмоциональная поддержка.

KIRISH

Farzand tarbiyasi jamiyatning ma'naviy barqarorligi, ijtimoiy muhit sog'lomligi va kelajak avlodning shaxs sifatida shakllanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim pedagogik-psixologik masalalardan biridir. Oila bolaning ilk ijtimoiy tajribasi, dastlabki axloqiy me'yorlari, muloqot madaniyati, emotsional xavfsizlik hissi va o'zini anglash jarayoni shakllanadigan birlamchi muhit hisoblanadi. Shu bois oilaviy tarbiya masalasini faqat maishiy yoki an'anaviy tarbiya doirasida emas, balki zamonaviy pedagogik, psixologik, kommunikativ va raqamli yondashuvlar uyg'unligida tahlil qilish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 73-moddasida ota-onaning o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga egaligi va ayni vaqtda ularni tarbiyalashi shartligi, shuningdek, farzandlarning sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti uchun javobgarligi aniq belgilangan [1; 73-modda]. Bu norma oilaviy tarbiyaning nafaqat axloqiy burch, balki huquqiy majburiyat ekanini ko'rsatadi.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda esa har bir bolaning oilada yashash va tarbiyalanish, ota-onasining g'amxo'rligidan foydalanish huquqi qayd etilgan [2; 13-modda]. Demak, oila farzand uchun oddiy yashash joyi emas, balki uning huquqiy, psixologik va ijtimoiy himoyasi ta'minlanadigan asosiy tarbiya makonidir. Lex.uz matnida ham ota-onaning farzand tarbiyasi va kamoloti uchun javobgar ekani bevosita ko'rsatilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy xalqaro yondashuvlarda ham ota-onalar va tarbiyachi shaxslarning bola rivojidadagi o'rni alohida ta'kidlanadi. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, ota-onalar va parvarishlovchilar bolaning erta rivojlanish jarayonida "asosiy me'morlar" sifatida maydonga chiqadi; ular bolaning miyasi, hissiy tajribasi, munosabat qurish ko'nikmalari va keyingi hayot yo'nalishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi [3].

UNESCO esa tug'ilishdan sakkiz yoshgacha bo'lgan davrni bola miyasi rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida baholab, bu davrda beriladigan tarbiya va ta'lim kelajakdagi emotsional farovonlik, o'qishga tayyorgarlik va ijtimoiylashuv uchun mustahkam asos yaratishini qayd etadi [4].

Biroq bugungi kunda oilaviy tarbiya jarayoni ayrim hollarda an'anaviy shaklda qolib ketmoqda. Ba'zi ota-onalar farzand tarbiyasini asosan nazorat, talabchanlik, tanbeh yoki jazolash bilan cheklab, bolani tinglash, uning yosh xususiyatlarini hisobga olish, muammoni birgalikda hal qilish, emotsional qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish usullaridan yetarlicha foydalanmaydi. Ayniqsa, 5–7-sinf yoshidagi o'quvchilar uchun bu masala yanada dolzarbdir. Chunki bu davrda bolada mustaqillikka intilish, o'z fikrini bildirish ehtiyoji, tengdoshlar bilan munosabatlarga kirishish, ota-ona nazoratini qayta baholash va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish jarayoni kuchayadi. Agar ota-ona ushbu davrni faqat intizomiy nazorat orqali boshqarsa, bola bilan hissiy masofa ortadi; agar mutlaqo befarq bo'lsa, mas'uliyat va o'zini nazorat qilish ko'nikmalari sustlashadi.

Shu nuqtayi nazardan, oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda innovatsion yondashuv deganda faqat texnik vositalar yoki raqamli platformalar emas, balki ota-onalar bilan treninglar o'tkazish, keys-tahlillar, vaziyatli muhokamalar, individual maslahatlar, faol tinglash, "men-xabar" usuli, emotsional qo'llab-quvvatlash, oilaviy qoidalarni ishlab chiqish hamda maktab bilan muntazam raqamli aloqa o'rnatish kabi amaliy pedagogik-psixologik vositalar majmuasi tushuniladi. UNICEF ota-onalar uchun tashkil etiladigan qo'llab-quvvatlash dasturlari ularga mehrlil parvarish ko'rsatish, stressni boshqarish va farzand bilan sog'lom muloqot qurish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishini ta'kidlaydi [3].

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda oilaviy tarbiya samaradorligi umumiy nazariy mulohazalar asosida emas, balki real tajriba-sinov natijalari orqali tahlil qilinadi. Tadqiqot Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi 5-, 12- va 24-sonli umumta'lim maktablarining 5–7-sinf o'quvchilari hamda ularning ota-onalari ishtirokida olib borildi. Umumiy tanlanma 90 nafar respondentdan iborat bo'lib, ulardan 45 nafari o'quvchi va 45 nafari ota-onalardir. Tadqiqotda oilaviy muloqot sifati, ota-onalarning pedagogik madaniyati, tarbiya uslublari, maktab bilan hamkorlik darajasi hamda innovatsion yondashuvlarning tarbiyaviy samaradorligi baholandi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik-psixologik yondashuvlarning amaliy imkoniyatlarini ochib berish hamda tajriba-sinov ishlari asosida ularning ota-onalar tarbiyaviy kompetensiyasiga, oila–maktab hamkorligiga va farzand bilan muloqot sifatiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- oilaviy tarbiyada innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslarini tahlil qilish;
- ota-onalarning pedagogik-psixologik tayyorgarligi va tarbiya uslublarini diagnostika qilish;
- ota-onalar bilan treninglar, suhbatlar, keys-tahlillar va individual maslahatlar shaklida amaliy ishlarni tashkil etish;



- tajriba-sinovdan oldingi va keyingi ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilish;
- oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni asoslash.

Tadqiqotning amaliy qiymati shundaki, unda oilaviy tarbiya bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar umumiy nasihat shaklida emas, balki maktab amaliyoti, ota-onalar bilan ishlash modullari va o'quvchilar xulq-atvorida kuzatilgan o'zgarishlar asosida shakllantirilgan. Shu jihatdan tadqiqot natijalari sinf rahbarlari, maktab psixologlari, ota-onalar bilan ishlovchi pedagoglar hamda oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning ta'sirini aniqlash uchun kompleks pedagogik-psixologik metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi oilani bolaning shaxsiy, axloqiy, kommunikativ va emotsional rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida talqin qilishga asoslandi. Bunda oilaviy tarbiya bir tomonlama nazorat yoki pand-nasihat jarayoni sifatida emas, balki ota-ona, farzand, maktab va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar tizimi sifatida o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini Diana Baumrindning ota-onalik uslublari konsepsiyasi, Thomas Gordonning "Parent Effectiveness Training" yondashuvi, Daniel Golemanning emotsional intellekt haqidagi qarashlari hamda zamonaviy oilaviy pedagogika va psixologiya tamoyillari tashkil etdi.

D. Baumrind ota-onalik uslublarini avtoritar, demokratik va liberal-befarq shakllarga ajratib, bola shaxsining ijtimoiy faolligi, mustaqilligi va mas'uliyatida tarbiya uslubining sezilarli o'rni borligini asoslagan [6: 1-103-b.].

T. Gordon tomonidan ishlab chiqilgan ota-onalar samaradorligi treningi esa faol tinglash, ziddiyatlarni hamkorlikda hal qilish, bolaga nisbatan hurmatli muloqot yuritish g'oyalariga tayanadi [7: 35-61-b.].

D. Goleman emotsional intellektni shaxsning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalar hissiyotlarini tushunish qobiliyati sifatida baholab, bu ko'nikmalar oilaviy muloqotda ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [8: 43-79-b.].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari natijalari oilaviy tarbiya samaradorligi ota-onaning faqat farzand ustidan nazorat o'rnatishi bilan emas, balki uning pedagogik-psixologik tayyorgarligi, farzand bilan muloqot madaniyati, emotsional qo'llab-quvvatlash darajasi hamda maktab bilan muntazam hamkorligiga bog'liq ekanini ko'rsatdi.

Tadqiqot 2024-2025-o'quv yilida Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi 5-, 12- va 24-sonli umumta'lim maktablarida tashkil etilib, shakllantiruvchi bosqichda 45 nafar ota-ona bilan maqsadli pedagogik-psixologik ishlar olib borilgan; mashg'ulotlar "Farzand bilan samarali muloqot", "O'smirlikka o'tish davrida bolani tushunish", "Oilada ijobiy psixologik muhit yaratish", "Nazorat, rag'bat va javobgarlik muvozanati" modullari asosida tashkil qilingan [10: 61-b.].


Tadqiqotning dastlabki diagnostika bosqichida ota-onalarning pedagogik-psixologik kompetensiyasi uch darajada baholandi: yuqori, o'rta va past. Dastlabki natijalarga ko'ra, yuqori darajadagi ota-onalar 20,0 foizni, o'rta darajadagilar 48,9 foizni, past darajadagilar esa 31,1 foizni tashkil etdi. Shakllantiruvchi bosqichda treninqlar, seminarlar, individual maslahatlar va vaziyatli muhokamalar o'tkazilgandan keyin yuqori daraja 42,2 foizga ko'tarildi, o'rta daraja 44,5 foizni tashkil etdi, past daraja esa 13,3 foizgacha kamaydi [10: 61-b.].

1-jadval: Ota-onalarning pedagogik-psixologik kompetensiyasi dinamikasi

Ko'rsatkich	Dastlabki bosqich	Nazorat bosqichi	O'zgarish
Yuqori daraja	20,0 %	42,2 %	+22,2 foiz punkt
O'rta daraja	48,9 %	44,5 %	-4,4 foiz punkt
Past daraja	31,1 %	13,3 %	-17,8 foiz punkt

Mazkur o'zgarishlar shuni anglatadiki, ota-onalar bilan oddiy tushuntirish ishlari emas, balki maqsadli, modulli va amaliy mashg'ulotlar asosida ishlash ularning tarbiyaviy pozitsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Ayniqsa, yuqori darajaning 20,0 foizdan 42,2 foizga ko'tarilishi ota-onalarda farzandning yosh xususiyatlarini tushunish, muloqotdagi keskinlikni kamaytirish, farzand xatti-harakatlarini sabab-natija asosida tahlil qilish va tarbiyaviy ta'sir usullarini ongli ravishda tanlash ko'nikmalari kuchayganini bildiradi. Past darajaning 31,1 foizdan 13,3 foizga kamayishi esa ota-onalar orasida tarbiyaga befarq yoki faqat an'anaviy nazoratga tayanuvchi yondashuvlar qisqarganini ko'rsatadi.



1-rasm: Ota-onalar tarbiya uslublaridagi o'zgarishlar dinamikasi

Natijalarning eng muhim tomoni ota-onalarning tarbiya uslubidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ldi. Dastlabki bosqichda avtoritar yondashuvga moyil ota-onalar ulushi 33,3 foiz bo'lgan bo'lsa, nazorat bosqichida bu ko'rsatkich 20,0 foizga tushdi. Demokratik, ya'ni tushuntirish, tinglash, kelishuv va rag'batlantirishga asoslangan yondashuv 37,8 foizdan 57,8 foizga oshdi. Befarq yoki izchil bo'lmagan tarbiya uslubiga moyillik esa 28,9 foizdan 22,2 foizgacha kamaydi [10; 61-b.].

2-jadval: Ota-onalar tarbiya uslublaridagi o'zgarishlar

Tarbiya uslubi	Dastlabki bosqich	Nazorat bosqichi	Pedagogik talqin
Avtoritar yondashuv	33,3 %	20,0 %	Buyruq, jazo va keskin nazorat kamaygan
Demokratik yondashuv	37,8 %	57,8 %	Tinglash, tushuntirish, kelishuv va rag'bat kuchaygan
Befarq / izchil bo'lmagan yondashuv	28,9 %	22,2 %	Ota-onaning mas'uliyatli ishtiroki nisbatan oshgan

Bu natijalar Diana Baumrind tomonidan ishlab chiqilgan ota-onalik uslublari konsepsiyasi bilan hamohangdir. Baumrindga ko'ra, demokratik tarbiya uslubi bolada mustaqillik, ijtimoiy faollik va mas'uliyatni rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi, avtoritar yondashuv esa tashqi bo'ysunishni kuchaytirsa-da, ichki mas'uliyat va ochiq muloqotni cheklashi mumkin [6; 1-103-b.].

Mazkur tadqiqotda demokratik yondashuvning 20 foiz punktga oshgani oilaviy tarbiyada majburlashdan ko'ra tushuntirish, hamkorlik va emotsional qo'llab-quvvatlash samaraliroq ekanini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Muhokama jarayonida innovatsion yondashuvlarning samarasi quyidagi mexanizmlar orqali yuzaga chiqqani aniqlandi.

Birinchi mexanizm – diagnostika va o'zini anglash mexanizmi. Ota-onalarga “farzand uy vazifasini bajar-masa qanday munosabat bildirasiz?”, “bola telefonni haddan tashqari ko'p ishlatsa qanday chora ko'rasiz?”, “farzandingiz sizga qarshi fikr bildirsa, uni tinglaysizmi?” kabi vaziyatli savollar berilishi ularning o'z tarbiya uslubini anglashiga yordam bergan. Bu jarayonda ota-ona o'zini “men to'g'ri tarbiya qilyapman” degan umumiy tasavvur bilan emas, balki aniq xatti-harakatlar asosida baholay boshlagan. Dissertatsiyada mazkur yondashuv ota-onalarning qaysi tarbiya uslubiga yaqinligini aniqlashga xizmat qilgani ko'rsatilgan [10; 61-b.].

Ikkinchi mexanizm – kommunikativ yumshatish mexanizmi. Tadqiqot davomida ota-onalarga farzand bilan har kuni kamida 10-15 daqiqa samimiy suhbat qilish, bolaning faqat xatosini emas, balki ijobiy harakatlarini ham e'tirof etish, tanqidni shaxsga emas, xatti-harakatga qaratish hamda bolani boshqalar bilan solishtirmaslik tavsiya etilgan. Bu tavsiyalar ota-onalarning tarbiyaviy pozitsiyasini yumshatish, oiladagi muloqot madaniyatini yaxshilash va psixologik muhitni barqarorlashtirishga qaratilgan [10; 61-b.].

Uchinchi mexanizm – oilaviy qoida va kelishuv mexanizmi. Telefon, dars, dam olish va uy yumush-lari bo'yicha aniq kelishuvlar ishlab chiqish farzandni faqat taqiqlash orqali emas, balki mas'uliyatli tanlovga o'rgatish orqali tarbiyalash imkonini berdi. Bu mexanizmning kuchli tomoni shundaki, unda ota-ona “men aytdim – bajarasan” pozitsiyasidan “kelishamiz – amal qilamiz – natijasini ko'ramiz” pozitsiyasiga o'tadi. Natijada bola oilaviy qoidalarni tashqi bosim sifatida emas, balki umumiy tartib va javobgarlik ifodasi sifatida qabul qila bosh-laydi.



To'rtinchi mexanizm – rag'bat va talabchanlik muvozanati mexanizmi. Tajriba davomida ota-onalarga jazolashga shoshilmaslik, avval sababni aniqlash, keyin suhbat qurish, qoida belgilash va natijani nazorat qilish tavsiya qilingan. Bu yondashuv tarbiyada ikki chekkadan – haddan tashqari qattiqqo'llik va befarqlikdan – qochishga yordam beradi. Shu sababli avtoritar yondashuv 33,3 foizdan 20,0 foizga kamaygan, demokratik yondashuv esa 37,8 foizdan 57,8 foizga oshgan.

Beshinchi mexanizm – maktab bilan raqamli va muntazam hamkorlik mexanizmi. Oilaviy tarbiya faqat uy ichidagi muloqot bilan cheklanmaydi; maktabdagi kuzatuvlar, sinf rahbarining fikrlari, psixolog tavsiyalari va ota-onaning muntazam xabardorligi tarbiyaviy ta'sirning izchilligini ta'minlaydi. Dissertatsiyada raqamli vositalar ota-ona va maktab o'rtasida tezkor aloqani ta'minlashi, kommunikativ usullar esa ota-ona va farzand o'rtasidagi ishonchli muloqotni kuchaytirishi qayd etilgan ^[10; 61-b.].

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tarbiyada innovatsion yondashuvlarni alohida tadbir sifatida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida qo'llash samaraliroqdir. Trening ota-onaga bilim beradi; keys-tahlil real vaziyatda qaror qabul qilishga o'rgatadi; individual maslahat ota-onaning shaxsiy muammosiga mos yechim beradi; raqamli aloqa esa maktab va oilaning tarbiyaviy ta'sirini uzluksiz bog'lab turadi. Shuning uchun tadqiqotda qo'llangan model ota-onalar yig'ilishi bilan cheklanib qolmay, diagnostika, maslahat, trening, raqamli qayta aloqa va monitoringni birlashtirgan amaliy tizim sifatida namoyon bo'ladi ^[10; 61-b.].

Muhokama natijalaridan kelib chiqib aytilish mumkinki, ota-onalar pedagogik-psixologik kompetensiyasi-ning oshishi bevosita uchta amaliy natijaga olib kelgan: birinchidan, ota-onalar farzandning yosh davri xususiyatlarini chuqurroq anglay boshlagan; ikkinchidan, oilaviy muloqotda buyruqbozlik va keskin tanqid o'rni-nga tushuntirish, tinglash va rag'batlantirish kuchaygan; uchinchidan, farzand tarbiyasiga maktab bilan hamkorlikda yondashish zarurligi haqida aniq pedagogik tasavvur shakllangan ^[10; 61-b.].

Shu bilan birga, tajriba-sinov jarayonida ayrim cheklovlar ham kuzatilgan. Ba'zi ota-onalar maktab bilan hamkorlikni faqat muammo yuzaga kelganda zarur deb bilgan, ayrimlari bandligi sababli treninglarda muntazam qatnasha olmagan, ayrim oilalarda esa farzand bilan ochiq muloqotga o'tish jarayoni sekin kechgan. Biroq tizimli yondashuv, individual maslahatlar, raqamli aloqa va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ushbu qiyinchiliklarni yumshatishga xizmat qilgan ^[10; 61-b.].

XULOSA

Tajriba-sinov natijalari oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar muhim amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ota-onalar bilan trening, keys-tahlil, psixologik suhbat, individual maslahat va raqamli hamkorlik asosida ishlash ularning pedagogik-psixologik kompetensiyasini oshirdi: yuqori daraja 20,0 foizdan 42,2 foizga ko'tarildi, past daraja esa 31,1 foizdan 13,3 foizga kamaydi. Tarbiyaviy uslubdagi o'zgarishlar ham ijobiy yo'nalishda kechdi: avtoritar yondashuv 33,3 foizdan 20,0 foizga tushdi, demokratik yondashuv esa 37,8 foizdan 57,8 foizga oshdi. Bu holat oilaviy tarbiyada jazolash va buyruqbozlikdan ko'ra tinglash, tushuntirish, kelishuv, rag'batlantirish hamda maktab bilan izchil hamkorlik samaraliroq ekanini tasdiqlaydi.

Demak, oilaviy tarbiya samaradorligi ota-onaning farzandni qanchalik qattiq nazorat qilishiga emas, balki uni tushunishi, yosh xususiyatlarini hisobga olishi, emotsional qo'llab-quvvatlashi, oilaviy qoidalarni kelishuv asosida belgilashi va maktab bilan uzluksiz hamkorlik qilishi bilan belgilanadi. Shu sababli umumta'lim maktablarida ota-onalar bilan ishlashni faqat yig'ilish va ogohlantirish shaklida emas, balki diagnostika, trening, maslahat, keys-tahlil va monitoringga asoslangan tizimli pedagogik mexanizm sifatida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020. <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2008. <https://lex.uz/acts/-1297315>
5. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016. <https://lex.uz/docs/-3026246>
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Makarenko A.S. Книга для родителей. – Москва: Педагогика, 1987.
9. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6 т. Т. 4. Детская психология. – Москва: Педагогика, 1984.
10. Карабанова О.А. Психология семьи. – Москва: Академия, 2010.

11. Baumrind D. Current Patterns of Parental Authority // *Developmental Psychology Monograph*. – 1971. – Vol. 4, № 1. – P. 1–103.
12. Gordon T. *Parent Effectiveness Training: The Proven Program for Raising Responsible Children*. – New York: Three Rivers Press, 2000.
13. Goleman D. *Emotional Intelligence*. – New York: Bantam Books, 1995.
14. Bronfenbrenner U. *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. – Cambridge: Harvard University Press, 1979.
15. Bowlby J. *Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment*. – New York: Basic Books, 1982.
16. UNICEF. *Support for Parenting: Evidence-Based Approaches to Strengthening Caregiving Practices*. – New York: UNICEF, 2023.
17. UNESCO. *Global Report on Early Childhood Care and Education: The Right to a Strong Foundation*. – Paris: UNESCO, 2024.
18. Raximova M. *Ota-onalarning pedagogik madaniyati va farzand tarbiyasidagi o'рни*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
19. G'anieva S. *Oila pedagogikasi: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
20. Ibragimova A.T. *Farzand tarbiyasida oilaning tutgan o'рни: pedagogik va psixologik yondashuvlar. Magistrlik dissertatsiyasi*. – Samarqand: Osiyo xalqaro universiteti, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.